

## FRAZEMALARNING MILLIY-MADANIY SEMANTIK TAHLILI

**Abdujalilova Feruza Shodiyarovna**

Jizzax davlat pedagogika universiteti katta o'qituvchisi

### ANNOTATSIYA

Maqolada frazemalarning milliy-madaniy an'ana va udumlar, tarixiy an'analar bilan bog'liq milliy ruhdagi maqol, matal, iboralar tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** Madaniyat, etnik, me'yor, ibora, an'ana, maqol, matal, ifoda, beshik, leksema.

### АННОТАЦИЯ

В статье анализируются пословицы, поговорки, выражения национального духа, связанные с национально-культурными традициями и обычаями, историческими традициями фразеологизмов.

**Ключевые слова:** Культура, этнический, норма, словосочетание, традиция, пословица, пословица, выражение, колыбель, лексема.

### ABSTRACT

The article analyzes proverbs, sayings, expressions in the national spirit related to national-cultural traditions and customs, historical traditions of idioms.

**Key words:** Culture, ethnic, norm, phrase, tradition, proverb, proverb, expression, cradle, lexeme.

### KIRISH

Milliy-madaniy birliklar, asosan, muayyan xalqqa xos etnik jihatlar, uning milliy-madaniy dunyoqarashi, an'ana va udumlari, tarixiy an'analari bilan bog'liq odob-axloq, muloqot me'yorlari, o'ziga xos milliy ruhdagi ijod namunalari, maqol, matal, ibora, majoziy ifodalar, ko'chma ma'noli birliklardan iborat birliklardir. Shuni xarakterliki, til birliklarida milliy-madaniy belgi turlicha aks etadi. Ayrim birliklar bevosita milliy xoslanganlik belgisini namoyon qilsa, ba'zi birliklarda bu belgi bilvosita yuzaga chiqadi. Ayrim so'zlarda madaniy sema lug'aviy ma'no bilan yonmayon yashasa, ba'zilarida ularning ko'chma ma'nosi orqali yuzaga chiqadi. Masalan, iboralar voqelikni ko'chma ma'no orqali aks ettirgani bois ularda bevosita milliy-madaniy belgi aks etadi. O'zbek tilidagi beshik leksemasi o'z ma'nosida o'zbek xalqining milliy qadriyatlaridan biriga aylangan predmetni bevosita aks ettirganligi bois milliy-madaniy birlik hisoblanadi. Bunday vaziyatda til birligiga xos madaniylik

belgisi uning lugʻaviy maʼnosi orqali anglashiladi. Bunday birliklar tarixan shakllangan boʻlib, millat madaniy hayotida muhim oʻrin egallaydi va boshqa tillarda kuzatilmaydi. Til madaniy hodisa sifatida eʼtirof etilsa-da, uning tizimida millatning madaniy qadriyatlarini aks ettiruvchi maxsus birliklari alohida guruhlanadi. Bunday birliklar muayyan xalqqa xos etnik, ijtimoiy-madaniy qarashlar, milliy anʼanalar, udumlar, odob-axloq, muloqot meʼyorlari kabilarni anglatadi. Bu kabi ekstralingvistik maʼlumotlarni oʻzida jamlagan til birliklari milliy-madaniy birliklar deb ataladi. V.V.Vorobyev bunday birliklarni lingvokulturema termini bilan ifoda etishni taklif qilgan edi. Uning fikricha, bu termin til birligining nafaqat lisoniy maʼnosini, balki madaniyat segmentini ham qamrab oladi<sup>1</sup>.

### TIL TAHLILI VA METODLAR

Lingvokulturemalarga madaniyatning biror boʻlagini aks ettiruvchi soʻzlar, **frazeologik birliklar**, soʻz birikmalari, gaplar, paremiyalar, murakkab sintaktik butunliklar, matnlar va hokazolar kiradi. Lingvokulturema mazmun va ifoda planiga ega, ifoda plani yuqorida koʻrsatilgan birliklar, mazmun planini esa oʻsha birliklarning semantikasi tashkil qiladi. Demak, lingvokulturema kontseptdan oʻzining mazmun va ifoda planiga ega boʻlishi bilan farq qiladi, lingvokulturologiya uchun xalq madaniyatini lisoniy koʻrinishda namoyon etish asosiy vazifa hisoblanadi. “Lingvokulturema” tushunchasi qiyosiy tilshunoslik uchun foydali, “zero til – madaniy fakt, biz meros qilib oladigan madaniyatning tarkibiy qismi va ayni paytda qurol hamdir. Xalq madaniyati til orqali verballashadi, aynan til madaniyatining tayanch, asosiy tushunchalarini harakatga keltiradi va ularni belgilar koʻrinishida, yaʼni soʻzlar vositasida ifoda etadi”<sup>2</sup>. Shunga binoan FBlarning lingvomadaniy jihatdan semantikasini yoritishga harakat qildik.

Til birliklarida milliy-madaniy belgi turlicha aks etadi. Ayrim birliklar bevosita milliy xoslanganlik belgisini namoyon qilsa, baʼzi birliklarda bu belgi bilvosita yuzaga chiqadi. Ayrim soʻzlarda madaniy sema lugʻaviy maʼno bilan yonma-yon yashasa, baʼzilarida ularning koʻchma maʼnosi orqali yuzaga chiqadi. Masalan, iboralar voqelikni koʻchma maʼno orqali aks ettirgani bois ular da bevosita milliy-madaniy belgi aks etadi. Oʻzbek tilidagi beshik leksemasi oʻz maʼnosida oʻzbek xalqining milliy qadriyatlaridan biriga aylangan predmetni bevosita aks ettirganligi bois milliy-madaniy birlik hisoblanadi. Bunday vaziyatda til birligiga xos madaniylik belgisi uning lugʻaviy maʼnosi orqali anglashiladi. Bunday birliklar tarixan shakllangan boʻlib, millat madaniy hayotida muhim oʻrin egallaydi va boshqa tillarda kuzatilmaydi. Tilshunoslikda bu tipdagi milliy-madaniy birliklar ekvivalentsiz leksika yoki realiyalar

deb ham yuritiladi. “O‘zbek tilidagi do‘ppi, atlas (mato), yaktak, belbog‘, karnay-surnay, nog‘ora leksemalarida madaniy sema ularning lug‘aviy ma‘nosi bilan birga gavdalanadi. Bunday leksemalar orqali bevosita o‘zbek xalqi, uning milliy urf-odatlariga ishora qilinadi. Xuddi shunday, rus tilidagi samovar, qozoq tilidagi beshbarmoq leksemalarida ham madaniy sema bevosita anglashilib turadi”<sup>1</sup>.

Frazeologizmlarning muayyan guruhi xalqlarning urf-odatlari, an‘analari va irimlari ta‘sirida shakllanadi. Jumladan, o‘zbek xalqida azafdan quloqtishlar odati mavjud. Quloqtishlar, ya‘ni beshikketdi odati hozirgi kunda Surxondaryo viloyatining ayrim tuman va qishloqlarida saqlanib qoigan. Oilada qiz bola tug‘ilib, chillasi chiqqandan keyin beshik lo‘y o‘tkaziladi. Qarindosh urug‘, do‘st-og‘aynilar yangi farzand bilan muborakbod etgani bu oilaga kelishadi. Shunda o‘g‘illik birodarlardan biri niyat qilib, yetaklab borgan 5-6 yashar o‘g‘ilchasiga chaqaloq qizchani tilaydi, so‘ratadi. Qizi bor oilaning buvasi, buvisi, ota-onasi va qarindosh-urug‘lari rozilik berishsa, "quloqtishlar" odati o‘tkazilgan. Boyagi bolakay beshikda yotgan qizaloqning "qulog‘ini tishlagan. Qadim zamonlarda bunday “qudashilik” ana‘analari qabilalar o‘rtasidagi urush-janjallarga chek qo‘ygan. Tinch qo‘shnichilikni saqlab qolgan<sup>2</sup>. Mazkur odatni ifodalovchi “qiz bolani go‘dakligidayoq bo‘ljak qayligi deb belgilab qo‘ymoq ma‘nosidagi” “qulog‘ini tishlamoq” iborasi qo‘llaniladi.

### **NATIJALAR**

O‘zbek xalqining nikohlash marosimi, unashtirish odati bilan bog‘liq iboralari tarkibida somatik so‘zlar faol qatnashadi. “Boshlarini qovushtirmoq”, “boshlarini biriktirmoq”, “boshlarini qo‘shmoq”, “boshini ikkita qilmoq”, “bir yostiqqa bosh qo‘ymoq” va h.k.

O‘zbek oilasida bola tug‘ilishi bilan chilla davri boshlanadi. Ayol farzand ko‘rishi bilan maxsus sharoitda saqlanib turli ins-jinslar, kasalliklardan himoya qilingan. An‘anaga ko‘ra ona va bola qirq kungacha chillali uydan chiqmasligi, bolali uyga begona odam kirmasligi, chillali uyda chiroq o‘chmasligi kerak. Chilla an‘anasi “tuqqaniga qirq kun bo‘ldi” ma‘nosidagi chillasi chiqdi iborasi bilan ifodalanadi: Chillasi chiqishi bilan Hadya ham alohida qizlar yacheykasi tuzishga boradi.

Frazeologik birliklarning tayanch komponenti sifatida tarixiy va diniy-mifologik mashhur shaxslarning nomlari kelishi mumkin: Xo‘ja ko‘rsinga “shunchaki nomigagina”, Musoning alamini Isodan olmoq “aybdor chyetda qolib, aybsiz kishiga qarshi ish tutmoq”, Xizrni yo‘qlasam bo‘lar ekan “kimnidir ko‘rish istagi qo‘qisdan ro‘yobga chiqqanda aytiladigan ibora”. Turk tilida: Bir K r gl  bir Ayvaz “bola-chaqasi yo‘q er-xotin”, Dardini Marko Pa a‘ya anlat “dardini eshitadigan hech kim

yo‘q”. Turli geografik joy nomlari ham frazeologik birliklarning tayanch komponentlari vazifasida keladi. Masalan, o‘zbekcha frazeologik birliklar tarkibida O‘zbekiston hududida joylashgan shahar, qishloq, daryo va sahrolar nomlari uchraydi... Frazeologik birliklar tarkibida qo‘llanilgan toponimlar o‘zlari jonlantiradigan sifat va belgilar, chunonchi, uzoqlik, saxiylik, taqvodorlik kabi alomatlar timsollari sifatida namoyon bo‘ladi: Beva xotinga Buxorodan it xuradi, onasini Uchqo‘rg‘ondan ko‘rsatmoq frazeologik birliklari tarkibidagi “Buxoro”, “Uchqo‘rg‘on”, до Москвы не перевешаешь, кричать во всю Ивоносвкую frazeologizmlari tarkibidagi “Москва”, “Ивановская” O‘zbekiston va Rossiya hududlarida joylashgan geografik nomlar bo‘lsa, язык до Киева, tuxumi Bag‘doddan kelibdimi?, Do in Rome as the Romans do nomlaridir<sup>1</sup> yoki “umid qilgan, kutgan narsaning teskarisi bo‘lib chiqdi” ma‘nosidagi Göründü Sivas‘ın bağları, “bu ish hozircha bo‘lgani bilan keyinchalik orqasidan g‘avg‘o chiqadi” ma‘nosidagi Karaman‘ın koyunu, sonra çıkar oyunu tarkibida foydalanilgan “Kiyev”, “Bag‘dod”, “Rome (Rim)”, “Sivas”, “Karaman” shaharlari rus, o‘zbek, ingliz va turk xalqlari uzoq asrlar davomida munosabat-muloqotda bo‘lib kelgan shahar nomlaridir.

### MUHOKAMA

O‘zbek xalqi kiyinish madaniyati nuqtayi nazaridan ham dunyodagi xalqlarning oldingi saflarida turadi. Bir necha ming yillar ilgari ota-bobolarimiz egniga yaktak-lozim, oyoqqa kovush-maxsi, etik, boshga shabpo‘sh, do‘ppi, telpak, ustga chopon, to‘n kiyib, belga belbog‘, qars boylashgan. Shuning uchun ham xalqimizda erkak kishilikni ramziy ifodalash xususida “belingda belbog‘ing bormi?” degan ibora qolgan. Har bir xalqning o‘ziga xos kiyim-kechak nomlari va realiyalari ham milliy frazeologizmlarni hosil qilishda asos vazifasini o‘taydi. Masalan, to‘nini teskari kiyib olmoq “o‘chakishgan holda qasarlik qilmoq”, do‘ppini osmonga otmoq “juda xursand bo‘lmoq”, do‘ppi tor keldi “iloj-imkonsiz og‘ir ahvolga tushmoq”, bir-ikki yaktakni ortiqroq yirtgan “yoshi kattaroq, turmush tajribasi ko‘proq” chorig‘ini sudramoq “zo‘rg‘a-zo‘rg‘a, amal-taqal qilib yashamoq”, paytavasiga qurt tushdi “xotirjamligi buzilib, bir yerda tinch tura olmaslik”, ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq “imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq”, chovlisini solmoq “aralashmoq”, turk tilida Ali‘nin külâhını Veli‘ye Veli‘nin külâhını Ali‘ye giydirmek “puli bo‘lmagani holda, birovdan olgan pulni boshqasiga, boshqasidan olganini yana boshqa birovga berib kun ko‘rmoq”, Bir don bir gömlek “yarim yalang‘och holda” iboralari shular jumlasidandir. O‘zbek xalqi turmushida kundalik hayotda ishlatiladigan uy-ro‘zg‘or buyumlari ham muayyan frazeologizmlarni shakllantirganini ko‘rish mumkin: ko‘rpasiga qarab oyoq uzatmoq “imkoniyatini hisobga olib ish tutmoq”: Ha, onang ko‘rpasiga qarab oyoq uzatsin,

uqdingmi?; chovlisini solmoq “aralashmoq”: Nigoraga hayronman, har narsaga o‘z chovlisini solavermay, tinchgina yursa nima qilarkin. Iste‘mol qilinadigan taom nomlari mavjud bo‘lgan frazeologik birliklar ham ko‘p hollarda milliy xususiyatga ega bo‘ladi: osh bermoq “to‘y-marosim munosabati bilan katta qozonda palov damlatib, ziyofat o‘tkazmoq: Xuddi shu o‘g‘il tug‘ilganda Pirimqul hoji qo‘y ham, ho‘kiz ham so‘ydirib, yurtga osh berdi ; tog‘ni tolqon qilmoq “har qanday katta va og‘ir ishni ham bajarmoq”: Undan keyin charchamaguningcha chopma, ayni qizishgan vaqtingda, g‘ayrating kelib, tog‘ni tolqon qilaman deganingda dam ol, birpasgina dam ol!

Turli madaniyatlarda iste‘mol qilinadigan taom turlari haqida gap ketganda, birinchi navbatda, taom tayyorlanadigan mahsulotning halol yoki haromligiga e‘tibor qaratiladi. Shuning uchun ham muayyan lingvomadaniy birliklarning obrazlilik joriy etilgan taqiq asosida yaratiladi. Ayrim frazeologizmlar tarkibida keladigan musiqaviy asbob nomlari ham iboralarga milliy ruh bag‘ishlaydi. Masalan, o‘zbek tilida “ro‘yobga chiqishi aniq bo‘lmagan narsa haqida hovliqmalik bilan vaqtdan oldin gapirmoq” ma‘nosida **to‘ydan ilgari nog‘ora qoqmoq** frazemasi qo‘llaniladi. Yoki rus tilida “birovning ko‘rsatmasi bilan biror ish qilmoq” ma‘nosining obrazli ifodasi uchun *plyasat pod chyu-libo dudku* frazeologizmidan foydalaniladi. Uni o‘zbek tilida **birovning nog‘orasiga o‘ynamoq** shaklida berish mumkin.

Frazeologizmlarning shakllanishida biron bir mahalliy hunarmandchilik yoki sanoatning ham muayyan ta‘siri kuzatiladi. Jumladan, Rossiyadagi Tula shahri o‘zining samovarlari, ingliz shahri Nyukastl esa ko‘mir sanoati bilan mashhurdir. Bu kabi xususiyatlar **ездить в Тулу со своим самоваром, to carry coals to Newcastle** singari frazeologik birliklarni yuzaga chiqargan. Har bir xalq atrofida borliqni o‘ziga xos o‘lchovlarda aks ettiradi. Shunga ko‘ra, o‘lchov birliklarini ifodalovchi ayrim hisob so‘zlari ham frazeologizmlarning ma‘lum guruhini shakllantiradi: “juda qisqa, juda oz vaqt davom etadigan” ma‘nosidagi bir tutam (Bir tutam qish kuni Gulnor uchun bitmastugamas uzoq ko‘rindi), “qittak, ozgina” ma‘nosidagi bir chimdim (Hazel-huzul, bir chimdim suhbatdan so‘ng Mirhaydar va O‘ktam paxta dalasiga yo‘l oldilar), “jindak, qittak, juda oz” ma‘nosidagi bir shingil (Qani, shunaqa bemaza hazildan bir shingil ashula yaxshi), “juda yosh, deyarli go‘dak” ma‘nosidagi bir qarich (Bir qarichligimdan yetim qolib, amakining xizmatida o‘tib ketganman) va h.k. Turk tilida ham quyidagi frazeologizmlarni kuzatish mumkin: Suat daha çok genç ve akli bir karış havadadır (o‘ylamasdan xayoliga kelganini qiladigan); Fakat kral hazretleri bütün gece Feşafeş’i kovalamaktan dili bir karış dışarda soluyup duruyor (chopishdan, yurishdan yoki chanqash tufayli juda charchamoq); Zaten canım burnumda bir de kapıyı böyle beş karış suratla açarsan... (xafa, qovog‘i solingan).

## XULOSA

O‘zbek tilining frazeologik boyligi haligacha to‘liq to‘planmagan. Frazeologizmlar lingvomadaniy jihatdan hali o‘rganilishi kerak bo‘lgan birliklardir. Shuning uchun frazeologik birliklarni yig‘ish, tasniflash, lingvomadaniy nuqtayi nazardan tadqiq etish, ularni o‘zga madaniyat iboralari bilan qiyosiy o‘rganish bugungi o‘zbek tilshunosligining kechiktirib bo‘lmaydigan dolzarb masalalaridan biridir.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Tojiboyev B. R Milliy-madaniy birliklar tilning milliy o‘ziga xosligini namoyon qiluvchi birliklar sifatida // O‘zbek tilini dunyo miqyosida keng targ‘ib qilish bo‘yicha hamkorlik istiqbollari. Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari. Toshkent: 2020. – B.55-59.
2. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. – Toshkent: 2019. – 248 b.
3. Шукурова М.А.Связь фразеологизмов с культурой русского и узбекского народов. "Science and Education" Scientific Journal. November 2020 / Volume 1 Special Issue 3. – С. 204-211.
4. Мусаев Қ. Таржима назарияси асослари. Дарслик. –Тошкент: Фан, 2005. – Б. 239
5. Саттаров М. Ўзбек удумлари.-Тошкент: 1993. Б.21-22.